

**ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI ASOSIDA BO'LAJAK
O'QITUVCHILARNING MULOQOT KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV NATIJALARI**

Valijonov Ilhomjon Xolmatjon o'g'li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: ilhomjonvalijonov97@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron ta'lim resurslari asosida bo'lajak o'qituvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodikaning tajriba-sinov natijalari yoritilgan. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish jarayonida Moodle, Google Classroom, Zoom, forum va chatlar, elektron portfoliolar hamda interaktiv test platformalaridan foydalanish orqali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari sinovdan o'tkazildi. Tajriba-sinov jarayonida nazorat va tajriba guruhlarini tashkil etilib, muloqot ko'nikmalarining motivatsion, kognitiv, amaliy-operatsion va reflektiv mezonlari asosida baholash amalga oshirildi

Kalit so'zlar: tajriba-sinov, elektron ta'lim resurslari, muloqot ko'nikmalari, kommunikativ kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, Moodle, Zoom, Google Classroom, pedagogik diagnostika, monitoring

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonining raqamli transformatsiyasi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki pedagogik faoliyatning asosiy mexanizmi sifatida muloqot o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlaydi, ta'lim oluvchilarning motivatsiyasi va faoliyatini boshqaradi, shuningdek, tarbiyaviy ta'sirni amalga oshirish imkonini beradi. Elektron ta'lim resurslari ta'lim jarayonida yangi kommunikativ imkoniyatlarni yaratib, bo'lajak o'qituvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali didaktik vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, onlayn platformalar orqali munozaralar tashkil etish, chat va forumlarda fikr almashish, videokonferensiyalar orqali treninglar o'tkazish hamda elektron portfoliolar yuritish bo'lajak o'qituvchilarning muloqot faoliyatini faollashtiradi. Shu sababli elektron ta'lim resurslari asosida bo'lajak o'qituvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini tajriba-sinovdan o'tkazish va uning samaradorligini ilmiy asosda isbotlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi elektron ta'lim resurslari asosida bo'lajak o'qituvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining tajriba-sinov natijalarini tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo'lajak o'qituvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya hamda ta'lim texnologiyalari sohalarida keng o'rganilgan muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiya o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi va u pedagogik samaradorlikning asosiy omillaridan biridir.

Mahalliy olimlardan Sh.A. Abdullayeva, N.N. Azizxo'jayeva, N.M. Egamberdiyeva va O.U. Hasanboyevalarning ilmiy ishlari pedagogik mahorat, pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv masalalariga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotlarda pedagogning kommunikativ qobiliyatlari uning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Xususan, Abdullayeva pedagogik muloqotni o'qituvchi faoliyatining asosiy vositasi sifatida ko'rsatib, uning samaradorligi ta'lim natijalariga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi.

Pedagogik kommunikatsiya masalasi M. To'xtaxodjayeva tomonidan chuqur o'rganilib, unda muloqot madaniyati, nutqiy faoliyat va pedagogik etika masalalari keng yoritilgan. Muallif pedagogik muloqotni nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxslararo munosabatlarni shakllantiruvchi muhim omil sifatida izohlaydi.

Xorijiy olimlar tadqiqotlarida ham kommunikativ kompetensiya va uning rivojlanishiga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-konstruktivistik nazariyasiga ko'ra, bilimlar ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi. Uning fikricha, o'quvchilarning rivojlanishida "yaqin rivojlanish zonasi" muhim ahamiyatga ega bo'lib, u aynan muloqot orqali faollashadi. A.A. Leontyev esa muloqotni psixologik jarayon sifatida o'rganib, uning motivatsion va faoliyat komponentlarini asoslab bergan. Unga ko'ra, samarali muloqot faqatgina axborot almashinuvi emas, balki shaxslararo ta'sir jarayonidir.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalarning pedagogik jarayonga ta'siri E.S. Polat, A.V. Xutorskoy hamda UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda keng yoritilgan. Xususan, UNESCO ning "ICT Competency Framework for Teachers" dasturida o'qituvchilarning raqamli va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu esa elektron ta'lim resurslarining ta'lim jarayonidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, u pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalari integratsiyasini talab qiladi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida elektron ta'lim resurslarining aynan muloqot ko'nikmalariga ta'siri yetarlicha eksperimental asosda yoritilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, elektron ta'lim vositalari yordamida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samaradorligini tajriba-sinov asosida isbotlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarning muloqot ko'nikmalarini elektron ta'lim resurslari asosida rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy metodlar qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogika, psixologiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasiga asoslanadi. Tadqiqotning nazariy asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga

yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, konstruktivistik ta'lim nazariyasi hamda raqamli pedagogika tamoyillari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasi ko'p komponentli tizim sifatida qaralib, uning motivatsion, kognitiv, amaliy-operatsion va refleksiv jihatlari o'zaro bog'liqlikda rivojlantiriladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

1. Nazariy tahlil usuli – pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish orqali muammoning ilmiy asoslari aniqlashtirildi;

2. Pedagogik tajriba (eksperiment) – elektron ta'lim resurslari asosida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazildi;

3. Kuzatish usuli – talabalarning o'quv jarayonidagi kommunikativ faoliyati tizimli ravishda tahlil qilindi;

4. So'rovnoma va test usullari – talabalarning muloqot ko'nikmalari darajasini aniqlash va baholash uchun qo'llanildi;

5. Statistik tahlil usuli – olingan natijalarni foiz ko'rsatkichlari asosida qayta ishlash va taqqoslash imkonini berdi.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy pedagogik ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalarni tayyorlash jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa elektron ta'lim resurslari asosida bo'lajak o'qituvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining samaradorligidan iborat bo'ldi. Tadqiqot jarayoni uch asosiy bosqichda amalga oshirildi:

1. Diagnostik bosqich – bu bosqichda talabalar muloqot ko'nikmalarining boshlang'ich darajasi aniqlanib, maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholandi. Baholashda motivatsion, kognitiv, amaliy-operatsion va refleksiv komponentlar hisobga olindi.

2. Tajriba-rivojlantiruvchi bosqich – tajriba guruhida elektron ta'lim resurslari asosida ishlab chiqilgan metodika joriy etildi. Ushbu bosqichda Moodle va Google Classroom platformalari orqali topshiriqlar berildi, Zoom orqali onlayn mashg'ulotlar tashkil etildi, forum va chatlarda munozaralar



o‘tkazildi, shuningdek Kahoot va Quizizz kabi platformalarda interaktiv testlar qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy o‘qitish metodlari asosida darslar olib borildi.

3. Yakuniy-nazorat bosqichi – ushbu bosqichda talabalar muloqot ko‘nikmalarining yakuniy darajasi qayta baholanib, tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘zaro taqqoslandi hamda tahlil qilindi.

Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlar soni 60 nafarni tashkil etdi. Ular ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi (30 nafar) va nazorat guruhi (30 nafar). Bu esa natijalarning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi. Muloqot ko‘nikmalarini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirildi:

1. motivatsion mezon (muloqotga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj);
2. kognitiv mezon (nazariy bilimlar darajasi);
3. amaliy-operatsion mezon (muloqot jarayonida bilimlarni qo‘llash qobiliyati);
4. refleksiv mezon (o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati).

Baholash natijalari uch darajada aniqlashtirildi: past, o‘rta va yuqori.

Mazkur metodologiya tadqiqot jarayonining tizimliliigi, izchilligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlab, elektron ta’lim resurslari asosida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning samaradorligini obyektiv baholash imkonini berdi. Natijalar esa statistik jihatdan qayta ishlanib, ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo‘ldi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalar bo‘lajak o‘qituvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda elektron ta’lim resurslarining samaradorligini aniq ilmiy dalillar asosida baholash imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida tajriba va nazorat guruhlari boshlang‘ich va yakuniy diagnostika natijalari o‘zaro taqqoslanib, dinamik tahlil amalga oshirildi. Boshlang‘ich diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba va nazorat

guruhlaridagi talabalar muloqot ko'nikmalari darajasi deyarli bir xil bo'lgan. Xususan, tajriba guruhida past daraja 40%, o'rta daraja 46,7% va yuqori daraja 13,3% ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida mos ravishda 36,7%, 50% va 13,3% ko'rsatkichlar qayd etilgan. Bu holat tajriba boshlanishida guruhlar o'rtasida sezilarli farq yo'qligini ko'rsatib, tadqiqotning obyektivligini ta'minlaydi. Tajriba-rivojlantiruvchi bosqichda elektron ta'lim resurslari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning muloqot faolligini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, forum va chatlarda muntazam fikr almashish, videokonferensiyalar orqali jonli muloqotda ishtirok etish hamda interaktiv topshiriqlarni bajarish talabalarni faol kommunikativ jarayonga jalb etdi. Bu esa ularning nutqiy faoliyati, fikrni erkin ifodalash qobiliyati va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yakuniy diagnostika natijalari esa tajriba guruhida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi. Xususan, ushbu guruhda yuqori darajadagi talabalar ulushi 13,3% dan 50% gacha oshgan, past darajadagi talabalar ulushi esa 40% dan 10% gacha kamaygan. O'rta darajadagi ko'rsatkich esa biroz kamayib, yuqori darajaga o'tish hisobiga 46,7% dan 40% gacha tushgan. Bu esa sifat o'zgarishining mavjudligini, ya'ni talabalar yuqori bosqichga o'tgani bilan izohlanadi. Nazorat guruhida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, ular ancha past darajada bo'lgan. Jumladan, yuqori darajadagi talabalar ulushi 13,3% dan 20% gacha oshgan, past daraja esa 36,7% dan 26,7% gacha kamaygan. O'rta daraja esa biroz oshib, 50% dan 53,3% ga yetgan. Bu natijalar an'anaviy o'qitish metodlari ham ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlasa-da, ularning samaradorligi elektron ta'lim resurslari asosidagi metodikaga nisbatan past ekanini ko'rsatadi.

Dinamik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida "yuqori daraja" ko'rsatkichining 36,7% ga oshgani metodikaning samaradorligini aniq ifodalaydi. Shu bilan birga, "past daraja" ko'rsatkichining keskin kamayishi talabalar muloqot ko'nikmalarining sifat jihatdan yaxshilanganini bildiradi. Nazorat guruhida esa bunday keskin o'zgarishlar kuzatilmagan. Olingan

natijalarni chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, elektron ta'lim resurslarining samaradorligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

1. talabalarning doimiy ravishda kommunikativ faoliyatga jalb etilishi;
2. interaktiv muhitda fikr almashish imkoniyatining kengligi;
3. mustaqil va reflektiv faoliyatning rivojlanishi;
4. vizual va multimediya vositalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi;
5. gamifikatsiya elementlari orqali motivatsiyaning oshishi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari pedagogik jarayonda elektron resurslardan foydalanish nafaqat bilimlarni oshirish, balki shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari elektron ta'lim resurslari asosida ishlab chiqilgan metodikaning yuqori samaradorlikka ega ekanini ilmiy-statistik dalillar asosida isbotlab berdi. Bu esa mazkur yondashuvni pedagogik ta'lim jarayoniga keng joriy etish zarurligini asoslaydi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, elektron ta'lim resurslari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Xususan, interaktiv platformalar, raqamli vositalar va zamonaviy pedagogik metodlarning uyg'un qo'llanilishi talabalarning kommunikativ kompetensiyasini kompleks tarzda shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, elektron ta'lim muhiti talabalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi hamda muloqot jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida muloqot ko'nikmalarining motivatsion, kognitiv, amaliy-operatsion va reflektiv komponentlari sezilarli darajada rivojlangan. Ayniqsa, forum, chat va videokonferensiyalar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning erkin fikr

bildirish, savol berish, tinglash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini mustahkamladi. Natijada yuqori darajadagi talabalar ulushining oshishi va past darajadagi ko‘rsatkichlarning kamayishi metodikaning samaradorligini yaqqol namoyon etdi . Umuman olganda, mazkur tadqiqot elektron ta’lim resurslari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Kelgusida ushbu metodikani yanada takomillashtirish, uni kengroq auditoriyada sinovdan o‘tkazish hamda turli fanlar kesimida qo‘llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
3. Egamberdiyeva N.M. Pedagogik kompetensiya va innovatsion faoliyat. – Toshkent: Fan, 2018.
4. Hasanboyeva O.U. Pedagogika: darslik. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Ishmuhamedov R.J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Istiqlol, 2014.

